

YALPI HUDUDIIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 16 506,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-sentyabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 5 950,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,1 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018 yil yanvar-sentyabr nisbatan % da
	2018 yil yanvar-sentyabr	2019 yil yanvar-sentyabr	
I. YaHM	12 624,4	16 506,6	107,2
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 293,6	15 839,1	107,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	330,8	667,5	111,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 293,6	15 839,1	107,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 833,3	7 097,0	102,7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 303,4	3 386,7	121,2
sanoat	1 569,7	2 302,9	114,4
qurilish	733,7	1 083,8	135,8
Xizmatlar	4 156,9	5 355,4	105,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	971,8	1 141,1	102,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	780,7	865,8	106,2
boshqa xizmatlar	2 404,4	3 348,5	106,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati - 102,7 %, (YaHM tarkibidagi ulush – 44,8 %), sanoat – 114,4 % (14,5 %), qurilish – 135,8 % (6,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 102,7 % (7,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 106,2 % (5,5 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 106,3 % (21,2 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentyabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,0 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar tarkibidagi ulushi 2,6 % punktga kamaydi va hisobot yilida 44,8 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 2,5 % punktga o'sdi va 21,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 33,9 % ni tashkil etdi va 2018 yilning mos davri (33,8 %) bilan taqqoslanganda 0,1 % punktga o'sdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-sentyabr



2019 yil yanvar-sentyabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,2 % ni (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida – 7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa– 5,5 % ni (6,4 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 21,2 % ni (19,5 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-sentyabr



2019 yil yanvar-sentyabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Statistika faoliyatini tashkil etish va
yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun ma'sul: A.Botirov.
Тел: 69-227-84-84